

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON**

**TIL VA MADANIYAT**

# **UZBEKISTAN**

**LANGUAGE AND CULTURE**

**2022 Vol. 2**

**[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Bosh muharrir o‘rinbosarlari:** Zaynobiddin Abdirashidov  
Qosimboy Ma‘murov  
**Mas‘ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo‘raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G‘aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullayev.

### **Tahrir hay‘ati**

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O‘zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O‘zbekiston)	Dilorom Ashurova (O‘zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san‘at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e‘lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Deputy Editors in Chief:** Zaynabiddin Abdirashidov  
Kasimbay Mamurov  
**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullaev.

### Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

# MUNDARIJA

## Lingvistika

### **Yorqinjon Odilov**

Jamiyat, til va madaniyat.....6

### **Muhayyo Hakimova**

O'zbek tilida "holat" ma'noli abstrakt nomlar.....18

### **Мехмет Джан**

Прошлое и настоящее алфавитов, используемых в  
тюркских республиках.....31

### **Surayyo Ziyotova**

"Mehrobdan chayon" da ifodalangan ijtimoiy-siyosiy leksikalar.....44

## **Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik**

### **Bahodir Karimov**

O'zbek jadid nasri va Abdulla Qodiriy.....61

### **Marg'uba Abdullayeva**

Paremik janrlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari  
(tarixiy-nasriy asarlar misolida).....71

### **Nodira Egamqulova**

Turkistonda milliy matbuot, adabiyot va adabiy til.....88

## **Din. Falsafa. Ilohiyot**

### **Bahriddin Umurzoqov**

"Rashahot" asarida Xojagon tariqati asoslari bayoni.....118

# CONTENT

## Linguistics

<b>Yorkinjon Odilov</b> Society, language, culture.....	6
<b>Muhayyo Hakimova</b> Abstract nouns meaning "situation" in Uzbek.....	18
<b>Mehmet Jan</b> Past and present alphabets used in the Turkic republics.....	31
<b>Surayyo Ziyotova</b> Socio-political vocabulary expressed in the work "Mekhrobdan chayon" .....	44

## Literature. Translation studies

<b>Bahodir Karimov</b> Uzbek jadid prose and Abdulla Qadiri.....	61
<b>Marguba Abdullaeva</b> Ideological and Artistic Properties of Paremnic Genres (on the example of historical and prose works).....	71
<b>Nodira Egamkulova</b> National press, literature and literary language in Turkestan.....	88

## Religion. Philosophy. Theology

<b>Bahriddin Umurzoqov</b> Detailed analysis of the foundations of the Khojagon tariqat in the work "Rashakhot".....	118
--	-----

## O'zbek tilida "holat" ma'noli abstrakt nomlar

Muhayyo Hakimova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Tilning leksik qatlami mazkur til egalari bo'lmish xalqning turmush tarzi, madaniyati, tafakkur darajasi, dunyoqarashi bilan shartlangan bo'ladi. Konkret so'zlar xalqning etnomadaniyati, turmush tarzini ko'proq o'zida mujassam qilsa, abstrakt so'zlar Abstrakt so'zlar muayyan xalqning dunyoqarashi, tafakkur tarzi, etik, estetik, madaniy, ma'naviy tushuncha va me'yorlarini nomlaydi. Ushbu maqolada o'zbek tili lug'at tarkibidan o'rin olgan holatni ifodalovchi abstrakt so'zlar tahlilga tortilgan. Ularning ma'noviy guruhlari, semantik strukturasi, ma'no taraqqiyoti o'rganilgan. Ruhiiy, aqliy va jismoniy holat ifodalovchi abstrakt so'zlar ajratilgan. Ajratilgan har bir leksik-semantik guruh yana taksonomik tarzda tasnif qilingan.

**Kalit so'zlar:** *abstraksiya, abstrakt so'zlar, holat, ruhiy holat, aqliy holat, jismoniy holat, semantika, polisemiya, tasnif.*

### Kirish

O'zbek tilida abstrakt otlarning ma'lum qismini *xursandchilik, g'amginlik, noxushlik, aqlsizlik, baxt, sog'inch, xavotir* kabi holat nomlari tashkil etadi.

Har qanday holatni nomlovchi so'zlar, aslida, ajratilganlik xarakteriga ega. Zero, holat ma'lum bir obyekt yoki ishtirokchisiz mavjud bo'lmaydi. Masalan, vaznsizlik holati shu holatning makoni, vaqti va unga tushgan obyekt bilan shartlangandir. Lekin *vaznsizlik* so'zida bu kabi belgilar mavjud emas. U ushbu belgilaridan ajratilgandir.

Obyektidan yoki ishtirokchilaridan ajratilgan har qanday holat nomlarida ma'lum darajada abstraksiya mavjud bo'lishiga qaramay, ularni abstrakt nomlar deb belgilay olmaymiz. Masalan,

<sup>1</sup>*Hakimova Muhayyo Karimovna* – filologiya fanlari doktori (DSc), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** mabdullajonova2002@mail.ru

**ORCID ID :** 0000-0002-2002-7978

**Iqtibos uchun:** Hakimova, M.K. 2022. "O'zbek tilida "holat" ma'noli abstrakt nomlar". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 18-30.

"uyqusizlik" holati bevosita kuzatishda berilgan bo'lib, ushbu holatning obrazi til egalari ongida mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham *uyqusizlik* leksemasining ma'nosi barcha til egalari tomonidan bir xil tushuniladi va qo'llaniladi. Bu esa konkret nomlar variantlarining bo'lmasligini yoki kam miqdorda bo'lishini belgilaydi. Abstrakt nomlarda esa o'zgacha holat kuzatiladi. Mazkur so'zlar nomlayotgan holat bevosita kuzatishda berilmaganligi sababli ushbu holatning inson ongida yagona obrazi shakllanmaydi. Abstrakt nomlar atayotgan holatlarni aqliy bilish orqali idrok qilar ekanmiz, insonlarning aqliy salohiyati va uni belgilovchi omillarning turlichaligi ma'lum bir holatni bir-biridan farqli mushohada qilinishiga sabab bo'ladi. Holat ma'noli abstrakt so'zlarning o'rganilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

### **Holat ma'noli abstrakt so'zlar semantikasi**

*Baxt* leksemasining variant aspekti invariant jihatidan keng. Ya'ni *baxt* so'zining invarianti "kishining hayotdan to'la qoniqish holati" bo'lsa, insonlarning hayotdan to'la qoniqayotganlarini bilish darajalari turli ekanligi hisobiga variantlari ham ko'p: "baxt – sog'lik", "baxt – mavjudlik", "baxt – sevgi", "baxt – xotirjamlik", "baxt – oila", "baxt – bu xursandchilik" kabi. Ushbu fikrimizni dalillashi mumkin bo'lgan quyidagi matnga e'tibor qarating:

*Agar baxt haqida o'ylasam, o'sha uyimizni ko'p eslayman. Bit-tagina xonada yashardik. Biz uchun hech qanday g'am-tashvish yo'q edi. O'sha shirin damlardan o'tadiganini men hali uchratganim yo'q. Senam shuni hech o'ylaysanmi?*

*- O'yladim nima-yu, o'ylamadim nima? Baxt bir xil bo'lmaydi. Bir qorindan tushganimiz bilan, bir hovlida yashayotganimiz bilan meniki boshqa, sizniki boshqa.*

*- Yaxshi gapirding. Baxtimiz ham xuddi qozon-tovog'imizga o'xshagan boshqa-boshqa. Hayotning hukmi shunaqamikin yo bizning nodonligimiz uchun shunday bo'lib qolganmikin? (Tohir Malik).*

Sevgining baxt ekanligi Muhammad Yusuf ijodida quyidagicha tasvirlangan:

*Sevgilim, men seni sevaman, tamom,  
G'amgin ko'zing, hadik to'la ko'zingni.  
Sevmoq bu – kunda bir ko'rmoq baxtidir  
Ozg'in qo'llaringni, sepkil yuzingni...*

Yoki haqiqiy farzandlik baxti ushbu fikrda yaqqol namoyon bo'lmoqda: *Brigadir Ibrohimga "Sen kimning o'g'lisin. Bilasanmi?"*

*Bilmasang, bilib qo'y: sen zo'r odamning o'g'lisan!" deb qo'yardi. Urush qahramonidan bu maqtovni eshitish uning uchun g'oyat katta baxt edi (Tohir Malik).*

Telegramm ijtimoiy tarmog'idan olingan baxt haqidagi quyidagi hikmatlarga e'tibor qaratamiz: "Kim uchundir dadasining boyvachcha bo'lishi baxt, kim uchundir shunchaki dadasining bo'lishi baxt"; "Hayotimizda kimlardir borligi bilan, kimlardir yo'qligi bilan baxt ulashadi". Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, so'zning ma'noviy tebranishi til egalarida turlicha kechishi abstrakt so'zlar uchun me'yor sanaladi.

Demak, o'zbek tilida bevosita kuzatishda berilmagan, faqat aqliy bilish orqali idrok qilinadigan holat nomlarini abstrakt holat nomlari deb belgilash mumkin.

Tahlillar jarayonida mazkur guruh elementlarining bir jinsli emasligini kuzatdik. Holat ma'noli abstrakt nomlar holatning turli xil ko'rinishlarini nomlar ekan, ularni kichik guruhlarda o'rganishni lozim deb topdik. Ushbu guruhdagi tashkil etuvilarni umumiy va xususiy holatni nomlashiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin:

- 1) umumiy holatni ifodalovchi abstrakt nomlar;
- 2) xususiy holatni ifodalovchi abstrakt nomlar.

Umumiy holatni ifodalovchi abstrakt nomlar kimdir yoki nimadir ishtirok etgan vaziyatni, umumiy holatni sof tarzda, bevosita nomlaydi. Ushbu guruhni quyidagi so'zlar tashkil qiladi: *ozodlik* – hech qanday majburiyat bilan bog'lanmaganlik holati, *mustaqillik* – qaram bo'lmagan holat, *tinchlik* – bezovta qilmaydigan, osoyishta holat, *notinchlik* – osoyishta bo'lmagan holat, *xotirjamlik* – biror kimsa yoki narsa halaqit qilmaydigan tinch holat, *hamjihatlik* – birlikda bo'lish holati, *yolg'izlik* – o'zi bilan o'zi bo'lishlik holati...

Ushbu guruhni tashkil qilgan so'zlarning deyarli barchasi yasama bo'lib, ular, asosan, sifatdan yasalganligi, ba'zilarining yasalishi murakkab strukturaga egaligi ko'rinib turibdi. Maqsadimiz abstrakt nomlarning formal tomonlarini emas, balki semantik xususiyatlarini tadqiq etish bo'lganligi sababli mazkur jihatlarga to'xtalmadik.

Umumiy holatni ifodalovchi abstrakt nomlar abstraksiya darajasi yuqori bo'lgan nomlarga kiradi. Zero, ular nomlayotgan holatni obrazli tasavvur qilib bo'lmaydi, aksincha, tushuniladi. Hamda mazkur so'zlar ifodalayotgan holatlarning lokallashuvi kuzatilmaydi. Masalan, *ozodlik* leksemasining muayyan bir obrazda tasavvur qilib bo'lmaydi, va ushbu so'z lokallikka xos kategoriyalarini qabul qila olmaydi. *Tinchlikning joylashuvi, tinchlikning yonida,*



*tinchlikning orqasida, tinchlikning balandligi* kabi jumlar mantiq-sizlikdir. Shu o'rinda yana ta'kidlash kerakki, abstrakt leksemalar bilan sintagmatik munosabatga kirishayotgan lokal xarakterdagi leksemalar ham abstrakt mohiyat kasb etadi. Ushbu fikr umumiy holatni nomlovchi abstrakt so'zlarga ham taalluqlidir. Masalan, *Mening hayotimda mustaqillikning o'rne beqiyosdir* gapida o'rin leksemasi "ahamiyat" ma'nosida, *bu tinchlikning orqasida kimlar turganini hammamiz yaxshi bilamiz* gapida esa orqa leksemasi "sababchi" ma'nosida qo'llanmoqda.

Umumiy holatni nomlovchi abstrakt nomlar ko'plik shaklini qabul qila olmaydi va sanoq sistemasiga befarqdir. *Sokinliklar* yoki *ikkita tinchlik* deyish til qoidalariga ziddir.

Xususiy holatni ifodalovchi abstrakt nomlar ma'lum bir jonli obyektning jismoniy, aqliy yoki ruhiy jihatdan bo'lgan ko'rinishi, holatini bildiradi. Xususiy holatni ifodalovchi abstrakt nomlarni uch guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- a) ruhiy holatni nomlovchi abstrakt nomlar;
- b) aqliy holatni nomlovchi abstrakt nomlar;
- b) jismoniy holatni nomlovchi abstrakt nomlar.

### **1. Ruhiy holat nomlari.**

Insonning ruhiy holatini nomlovchi abstrakt nomlarga hissiyotlar, his-tuyg'ular, kayfiyatni nomlovchi so'zlar misol bo'la oladi. Bu guruhga *armon, aqlsizlik, afsus, baxtiyorlik, baxt, baxtsizlik, vahima, iztirob, irodasizlik, kulfat, nadomat, nafrat, omad, sarosima, sarosimalik, sevgi, muhabbat, sevinch, sog'inch, tasalli, taskin, tashvish, tushkunlik, umid, umidsizlik, xavotir, xastadillik, xafalik, xursandchilik, shodlik, shubha, qayg'u, quvonch, quturish, g'azab, g'am, hayrat, hayronlik, hayajon* kabi nomlar misol bo'la oladi.

Yuqorida berilgan ruhiy holat nomlarining abstraksiya darajasi juda yuqori bo'lib, ular obyektidan ajratilgan, bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan, aql orqali bilish mumkin bo'lgan nomoddiy mohiyatlarni, holatlarni nomlaydi.

Ruhiy holat nominatsiyasini tahlil qilar ekanmiz, unda insonlarning emotsiyalarini va his-tuyg'ularni nomlovchi leksemalarni farqladik. Zero, psixologiya fanida ham emotsiya va his-tuyg'ular bir-biriga yaqin boshqa-boshqa hodisalar sifatida talqin qilinadi.

Shaxsning atrofdagi va o'zida kechayotgan voqealarga bo'lgan baholovchi munosabati emotsiyalarni keltirib chiqaradi. Emotsiyalar muayyan voqea-hodisa, sharoitlarga insonning qisqa muddatli reaksiyasidir. Ularga *xursandchilik, g'azab, qo'rquv, hayrat,*

*hayronlik, hayajon* kabi soʻzlarni kiritish mumkin. His-tuygʻular esa emotsiyalarga nisbatan barqaror, uzoq muddatli boʻlib, ularga *sevgi, muhabbat, baxt, sogʻinch* kabi soʻzlar misol boʻla oladi.

Demak, insonning ruhiy holatini nomlovchi abstrakt nomlar guruhini emotsiya, his-tuygʻu nomlari tashkil etadi.

Emotsiya nomlarida insonning muayyan vaziyat talab qilgan turgʻun boʻlmagan beqaror ruhiy holati va ularda vaziyatga boʻlgan baholash munosabati aks etadi. “Vahima” muayyan bir vaziyatning taʼsirida hosil boʻlgan juda kuchli qoʻrqish holati va u shu vaziyatdan tashqarida oʻzgarishi yoki mavjud boʻlmasligi mumkin. Aniqrogʻi, itdan vahimaga tushish holati yoki hissi faqat it bilan bogʻliq vaziyatlardagina voqe boʻladi. “Vahima” leksemasida vaziyatga boʻlgan salbiy munosabat ham mavjud boʻladi. Sevgi tuygʻusi esa “vahima”ga nisbatan barqaror boʻlib, u vaziyat bilan emas, obyekt bilan shartlangan boʻladi. Bu his shu obyekt mavjud boʻlmagan vaziyatda ham insonni tark etmasligi mumkin.

Ayrim soʻzlar emotsiyalarni nomlashi bilan birga, mazkur ruhiy holatdagi muayyan hisni ham nomlab keladi. Masalan, surunkali jahl emotsiyasini boshidan kechirgan odamda jahldorlik hissi barqarorlashib qolishi mumkin.

Ruhiy holat nomlari oʻzbek tilida miqdoran katta leksik guruhni tashkil etadi. Ushbu guruh tashkil etuvchilarining abstraksiya darajalari aqliy holat nomlariga nisbatan pastroqdir. Zero, aksariyat ruhiy holat nomlari atayotgan mohiyatlarning belgilarini kuzatish mumkin. Masalan, “qahr” soʻzi atayotgan emotsiyaning belgilari kishining yuzidagi mimikalarida, xatti-harakatlarida, ovozining ohangi va kuchida oʻz ifodasini topadi. Quyidagi matnda “qahr” inson yuz tuzilishidagi belgilar orqali maʼlum boʻlmoqda: *Boburning yuzi qahr-u gʻazabdan bir oqarib, bir qizarib ketayotgan boʻlsa ham soʻzlari ravon edi. Samarqandda Boburni tildan qoldirgan kasallik — gʻoyat kuchli bir ruhiy larzaning oqibati edi. Endi undan ham kuchliroq ruhiy larza Boburning tilida qolgan duduqlikni birdan yoʻq qilib yubordi. Dushmanlariga qarshi cheksiz bir nafrat va gʻazab unga kuch-quvvat bermoqda edi* (P.Qodirov).

Keyingi matnga eʼtibor qaratar ekanmiz, unda *qahr* soʻzi nomlayotgan emotsional holatda koʻproq ovozning oʻzgarishi kuzatiladi va ovozdagi oʻzgarish tufayli biz insonni qahrilanganligini anglaymiz: *Qorongʻilikni titratib chiqqan Asadbekning qahrli ovozi oraga tushgan bir damlik sukutni buzdi.*

— *Mening qullarim ajib-bijib yotibdi. Sendan durustroq qil ham chiqmaydi. Sen... ashulangni bilsang bas. Boshqa ishlarga tum-*

*shug'ingni suqma. Elchin Asadbekning sensirashiga o'tganidan bildiki, u g'azab otiga mindi (T.Malik).*

"Qahr"ning kuzatishda berilgan belgilariga yana mazkur holatdagi kishining noodatiy xatti-harakatlarini misol qilish mumkin: *Qahr bilan, nafrat bilan so'ridan tappa tashladim. Beqasam choponlik bilan bo'zbolalarni oracha qilayin, dedim. Olomoni qulochlarim bilan yorib, o'rtaga kirib bordim. Bir bo'zbolani bilagidan qo'shqo'llab ushladim. Ketiga sermab yubordim. Bir bo'zbolani sochlaridan g'ijimlab ushladim. Sochlaridan chetga tortdim (T.Murod).*

Mazkur guruh elementlarining barchasi ruhiy holatni ifodalashi bilan birga ayrimlarida (qo'rquv, g'azab) ruhiy holat sof tarzda nomlansa, ayrim nomlarda (sevgi, nafrat) holat va munosabat opozitsiyasining neytrallashuvi kuzatiladi. Ruhiy holatni sof tarzda ifodalovchi nomlarga quyidagi leksemalarni misol qilib ko'rsatish mumkin: *hayrat* – kuchli darajadagi hayronlik holati, *hayronlik* – mohiyat-sababiga tushunmay ajablanish holati, *hayajon* – ichki to'lqinlanish holati, *g'am* – ruhiy azob holati. *Sevgi, hurmat, ishonch, sodiqlik, xiyonat* kabi nomlarda esa ruhiy holat va munosabat opozitsiyasining neytrallashuvi kuzatiladi. Ya'ni bu nomlar ruhiy holat bilan birga muayyan bir obyektga yo'naltirilgan munosabatni ham nomlaydi.

Insonning ruhiy holatini nomlovchi guruh elementlarining bir jinsli emasligi ularni yanada kichik guruhlariga tasniflash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Yuqoridagi fikrlarga tayanib, ushbu guruhdagi leksik birliklarni ikki guruhga ajratdik:

1. ruhiy holatni sof tarzda nomlovchi so'zlar,
2. ruhiy holatni munosabat bilan qorishtirib nomlovchi so'zlar.

Ruhiy holatni sof tarzda nomlovchi so'zlarga *hayronlik, hayrat, g'azab, jahl, vahima, qo'rquv, dahshat, qutirish, qahr, hayajon, ajablanish, taajjub, notinchlik, xursandchilik, g'am, iztirob, tashvish, sog'inch, xafalik, umid, umidsizlik, baxt, baxtsizlik, kulfat, xavotir, aqlsizlik, tushkunlik, nadomat, afsus, sarosima, sarosimalik* kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Bularning barchasi "ruhiy holat" arxisemasi bilan birlashadi. Ushbu guruh birliklari orasida *g'azab, jahl, vahima, qo'rquv, dahshat, qutirish, qahr, hayajon* kabi leksemalar insonlar bilan birga ayrim hayvonlarning ruhiy holatini ham ifodalaydi.

Odamning hissiyotlari yoki his-tuyg'ulari bilan hayvonlarning his-tuyg'ulari bir xil so'zlar bilan ifoda qilinsa-da, ular bir-biridan farq qiladi. Masalan, *jahl, qo'rquv, qiziquvchanlik* so'zlari in-

sonlarga ham, hayvonlarga ham birdek qo'llanishi mumkin. Lekin ularning semantik mundariyasi bir-biridan farq qiladi. Insonning his-tuyg'ulari o'ta murakkabdir. Kishilarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, diniy tafakkuri zamirida sof insoniy his-tuyg'ular shakllanadi va inson bu tuyg'ularini boshqarib, jilovlab turadi. Hayvonlardagi his-tuyg'ular esa ong orqali boshqarilmaydi.

## 2. Aqliy holat nomlari.

Rus tilshunosligida V.G.Gak [Gak 1993], N.F.Shukina [Shukina 1982] tomonidan "mental holat" leksik-semantik maydoni tadqiq etilgan bo'lsa, O.V.Ivashenko esa abstrakt leksemalarning semantik maydonidagi kognitiv tashkil etuvchilarni rus va ingliz tili materiallari asosida qiyosan o'rganadi [Ivashenko 2002]. Mazkur guruhni fikr, g'oya, aql, ong, qiziqish, bilim, ilm, mushohada, diqqat, e'tibor, tafakkur, mulohaza kabi so'zlar tashkil etadi. Ularning abstraksiya darajasi ruhiy holat nomlariga nisbatan yuqoridir. Aqliy tushuncha va holat nomlari faqat nazariy bilish jarayonlari bilan bog'liq voqeeliklarni ataydi. Mazkur so'zlar insonning holatini nomlab kelsa-da, ularning semantikasida muayyan bir obyektning holati ekanligi unutilgan va mazkur holat mustaqil substansiyaga aylana olgan. Masalan, "tafakkur" so'zining ma'nosi O'TILda shunday keltiriladi: "Obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati; fikrlash" [O'TIL (4), 690]. Demak, tafakkur insonning fikrlash qobiliyati bo'lib, bu mental holat yoki qobiliyat insondan ayri holda mavjud emas. Lekin "tafakkur" so'zida inson atributi ekanligi unutilib, u o'ziga xos belgilardan iborat substansiya darajasiga yetgan. Bu fikrimizni quyidagi she'riy parchada "tafakkur" so'zining qo'llanishi dalillaydi:

*Ko'z ilg'amas ummonning bor adog'i,*

*Tog'u dala o'rmonning bor adog'i.*

*Hatto moviy osmonning bor adog'i*

*Ammo oliy tafakkurda sarhad yo'q*

*("Zakovat" o'yinining gimni).*

Tafakkur so'zining yuqori abstraksiyaga ega ekanligi uning tashuvchisidan mutloq ajratilishi bilan o'lchanadi.

Jahon tilshunosligida konkret va abstrakt otlarni ko'plik kategoriyasini qabul qilish yoki qila olmaslik nuqtayi nazaridan ajratilish an'anasi mavjud. O'zbek tilidagi ayrim aqliy holat nomlarining -lar ko'plik qo'shimchasini qabul qila olishi ularning abstraksiya darajasining pasayishiga olib kelmaydi. *Fikrlar, g'oyalar, o'ylar, orzular, bilimlar, qiziqishlar* kabi so'zlarning abstraksiya darajasi -lar

qo'shimchasini qabul qila olmaydigan *iroda, diqqat, e'tibor, tafakkur* so'zlarining abstraksiya darajasidan kam emas.

*Ong* so'zi "kishining fikrlash qobiliyati", "odamning yoki odamlar guruhining ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi, unga munosabati", "voqelikning kishi miyasidagi aksi" kabi ma'nolarni anglatadi [O'TIL, 3-jild, 126-129]. *Aql* esa "inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka munosabatini boshqarib turadigan faoliyati" [O'TIL, 1-jild, 152]. Demak, *ong* so'zi voqelikning miyamizdagi aksini va unga bizning munosabatimizni bildirsa, *aql* so'zi mazkur jarayonni boshqarib turuvchi faoliyatdir. *Aql* so'zi polisemantik so'z bo'lib, uning "fahm, idrok", "mulohaza, maslahat tarzidagi fikr" kabi ma'nolari bor. *Aql bo'lmoq, aql kerak yoki aql kerak emas kabi bog'lanishlarda esa "aql" leksemasining izohli lug'atda qayd etilmagan "maslahatchi" ma'nosi reallashadi. Bu ma'no "maslahat tarzidagi fikr" ma'nosidan metonimiya asosida o'sib chiqqan: maslahat – maslahatchi.*

*Aql* so'zining yuqori abstraksiyaga ega ekanligi uning o'z tashuvchisidan (insondan) ajratilganlik darajasi yuqoriligi bilan izohlanadi. Ushbu so'z semantikasi go'yoki alohida "aql" substansiyasi mavjuddek taassurot uyg'otadi. Zero, obyektiv olamda aql insondan ayri holda mavjud emasligi ma'lum. Quyidagi matnda aqlning, nafaqat aqlning, fikrat va muhabbatning ham alohida mohiyat sifatida talqin qilinishi fikrimizning dalilidir:

*Yurak kulbasida yashar muhabbat,  
Boshni makon etmish aql va fikrat.  
Baland qasrlardan aql izla-yu  
Va lekin muhabbat izlama faqat (Erkin Vohidov).*

*Aql* insoniylikning eng muhim belgilaridan biri bo'lib, aql, ong, fikrlash ne'mati faqatgina insoniyatga xos ekanligi bois, mazkur tushuncha o'zbek xalqida qadriyatga aylangan. Zero, *aql* so'zi bilan bog'liq maqollar, frazemalar, o'xshatishlarning mavjudligi fikrimizning dalilidir. *Aql* hatto mifologiyalashgan til birliklarida o'z ifodasini topadi. Masalan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida O'gdulmish aql ramzidir. O'gdulmish so'zining ma'nosi o'g bilan bog'liq bo'lib, "aql bilan ziynatlangan" ma'nosiga ega. O'gdulmish va O'zg'urmishning savol-javoblari ba'zan keskin munozara darajasiga yetadi. O'gdulmish shunda ham bosqlik qiladi, aql bilan fikr yuritadi, natijada O'zg'urmishni o'z g'oyalariga ishontira oladi [Adabiyot 2018, 92-93]. Abayning "Nasihatlar" kitobida ham G'ayrat, Aql va Yurakning o'zaro munozarasi keltirilib, bu insoniyat-

ga berilgan ne'matlarning birini ikkinchisi bilan bog'liqliklari ochib berilgan.

"Aql" qadriyati "aql bovar qilmaslik", "aqlga sig'maslik" kabi o'xshatishlarda ham aks etadi. Ko'plab maqollarda o'zbek xalqining aql bilan bog'liq qarashlari aks etadi: *ayolning husni pardozda emas, aqlida; aybini yashirmoq nodonlar ishi; amalga qarama, aqlga qara; aql aynimas, oltin chirmas; aql aqldan quvvat olar; aql bilan odob egizak; aql bozorda sotilmas; aql bo'yda emas, o'yda.*

*Bilim* so'zi bosh ma'nosida voqelik yoki uning ma'lum sohasi haqida muayyan ma'lumotlarga, tushunchalarga egalik holatini anglatadi. *Ilm* esa o'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilimlarni anglatadi. Masalan, har bir o'zbek bolasi o'zbek tilida talaffuz qilish bilimiga ega. U bu bilimlarni yoshligidan atrofidagi lisoniy jamoalarning ta'sirida olgan. Lekin o'zbek tilida to'g'ri talaffuz qilish ilmi orfoepiya fani orqali hosil qilinadi. Ushbu ilm muayyan qoidalarni tizimli bilish, tadqiqot va tahlillar, ko'nikma va malakalar orqali shakllantiriladi.

Islom Sharqida ilm tushunchasi ham diniy, ham dunyoviy mazmun kasb etgan. Ayni paytda ilmning bu ikki pallasi o'ziga xos jihatlarga egaligi ham inkor etilmagan. Bu haqda A.A'zamov quyidagilarni yozadi: "Fan inson yashaydigan muhit — tabiat (metogalaktikadagi jarayonlardan miya faoliyatigacha) va jamiyat bilan (BMT faoliyatidan shaxs ruhiyatigacha) ish tutsa, din insonning ichki dunyosi — qalb va ruhiga taalluqlidir. Har ikki jabha ong va tafakkur ko'priklari bilan tutashgan" [Abdulla A'zam 1999, 42-43].

XI asrdan (ya'ni tasavvuf ta'limoti ilm sifatida shakllanganidan) boshlab "ilmi qol" va "ilmi hol" tushunchalari muomalaga kiritiladi. Dastlab bu ikki tushuncha so'fiyning zohiriy va botiniy dunyosiga oid, murshiddan muridga berilishi mumkin bo'lgan yoki bo'lmagan bilimga nisbatan istifoda qilingan. "Ilm qol" so'z bilan ifodalash, o'rganish yo'li orqali berilishi mumkin bo'lgan bilimni anglatasa, "ilmi hol" har bir so'fiyning, o'z tafakkuri va e'tiqodiga xos, qalb ko'zi bilan yetishgan, o'zgalarga o'rgatish imkoni bo'lmagan bilimni bildirgan, Abu Rayhon Beruniy "Qol ilmi", Bahovuddin Naqshband esa "Hol ilmi"ning yetuk vakili edi. Biri avlodlar uchun nodir asarlar yozib qoldirgan bo'lsa, ikkinchisi yuzlab izdoshlariga ruhiyat sabog'ini bergan. Shuning barobarida Beruniy o'ziga zamondosh so'fiylar ta'limotini inkor qilmagan, Naqshband ham dunyoviy ilmga xayrixoh bo'lgan [Nurmonov, Yo'ldoshev 2001, 6-7].

Tilimizda *fikr* so'zi ishtirokda ham bir qancha iboralar, maqollar yaratilgan. ***Fikrga tolmoq (yoki ketmoq, cho'mmoq,***

**sho'ng'imoq), fikr yurgizmoq (yoki yuritmoq), fikr olishmoq, fikriga tushmoq kabi frazemalar;** *Fikri ravshanning so'zi ravshan, Yaxshini ko'rib, fikr qil, yomonni ko'rib, shukur qil kabi maqollar shular jumlasidandir.*

Demak, aqliy holat nomlari insonning aqliy faoliyati bilan bog'liq holatlarni nomlaydi. Mazkur guruhga oid so'zlarning aksariyati ko'p ma'noli bo'lib, ma'no taraqqiyoti odatda abstrakt ma'nolarni ifodalashga qaratilgan. Aqliy holat nomlari guruhidagi so'zlarning ko'pchiligi xalqimizning qadriyatiga aylangan bo'lib, mifologiyalashgan til birliklari, frazeologik birliklar, o'xshatishlar, tilning paremiologik fondi tarkibidan mustahkam o'rin olgan.

### **3. Jismoniy holatni nomlovchi so'zlar.**

Jismoniy holatni nomlovchi so'zlar obyektidan (tirik jonzotlardan, asosan, insonlardan) ajratilgan jism bilan bog'liq holatlarni nomlaydi: *hayot* – tiriklik holati, *tiriklik* – yashash holati, *o'lim* – hayotning tugash holati, *kasallik* – salomatlikning buzilish holati, *kasalmandlik, dardchillik, nosog'lik, qiyinchilik* – qiynoq keltiradigan holat, *tashnalik* – suvga yoki biror bir narsaga zorlik holati, *holsizlik* – holsiz holat, *darmonsizlik* – kuch-quvvatsizlik holati, *azob* – ruhiy yoki jismoniy qiynoq holati, *charchoq* --horiganlik holati, *dard* – jismoniy azob holati.

Jismoniy holatni nomlovchi so'zlarni aksariyati ko'p ma'noli bo'lib, aksariyat bosh ma'nolari jismoniy holatni ifodalaydi. Hosila ma'nolar esa ruhiy holatni nomlaydi va o'z-o'zidan ularning abstraksiya darajalari ham yuqori bo'ladi. Masalan, *dard, qiyinchilik, tashnalik* leksemalari bosh ma'nosida jismoniy holatni nomlasa, hosila ma'nolari bilan ruhiy holatni nomlaydi. *O'lim, hayot, holsizlik, darmonsizlik, charchoq* leksemalari faqat jismoniy holatni nomlaydi.

Jismoniy holatni nomlovchi so'zlarga nisbatan «abstrakt» atamasini qo'llashning o'zi mantiqsizdek tuyuladi. Ma'lumki, abstrakt nomlar mantiq nuqtayi nazaridan obyektidan ajratilgan moddiy bo'lmagan, ideal xarakterdagi mohiyatlarni nomlaydi. Ta'kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan nomlar moddiylikni emas, balki, jism bilan, moddiylik bilan bog'liq holatlarni nomlaydi. Ya'ni jismoniy holatni ifodalovchi nomlar obyektidan, jismdan alohidalangan, ajratilib alohida mohiyat sifatida talqin qilinadigan, lekin jism bilan bog'liq holatlarni nomlaydi. Shu o'rinda "ajratilganlik" va "bog'liqlik" terminlarining bir-biriga muvofiqligi masalasi kelib chiqadi. Biz nazarda tutayotgan vaziyatda ajratilganlik ma'lum bir holatni shu holat sodir bo'layotgan insondan ajratish,

alohidalashdir. Ya'ni charchash holati muayyan bir tirik inson bilan ro'y berishi ma'lum. Lekin "charchoq" leksemasida mazkur holat shu holatga tushgan tashuvchisidan alohida mohiyat sifatida nomlanmoqda. "Charchoq" leksemasi tashuvchisidan ajratilganligi bilan u ma'lum darajada bog'liqliklarga ega. Bu bog'lanish leksemaning semantik strukturasi mavjud bo'lgan "jismda kechuvchi" semasi-ning mavjudligi bilan belgilanadi. Aslida "charchoq" leksemasining ma'nosini quyidagicha belgilash mumkin: "jismda kechuvchi zo'riqish". Ajratilgan holat nomlarining semik strukturasi tashuvchisi bilan bog'lovchi semalarning mavjudligi ularning abstraksiya darajalari pastligidan darak beradi. Ayrim ishlarda tashuvchisi bilan muayyan bog'liqliklarga ega nomlar abstrakt nomlarga kiritilmaydi. L.O.Cherneykoning fikricha, affiksatsiya yo'li bilan yasalgan so'zlarda o'zak morfema orqali obyekt bilan, moddiylik bilan bog'liqlik mavjud bo'ladi va bu kabi substantivlarni abstrakt nomlar deyish to'g'ri emas [Cherneyko 1997, 48-54]. Affiksatsiya orqali yasalgan nomlarning abstrakt yoki konkret ekanligi atroflicha ilmiy tahlilni talab qiladi. Bu o'rinda jismoniy holatni ifodalovchi nomlarning abstrakt yoki konkret ekanligini belgilash lozim. Mazkur so'zlarni abstrakt yoki konkret ekanligini sof lisoniy omillar asosida tekshirishga harakat qilamiz.

Semantik omil bo'yicha, konkret nom tarkibida "predmet" semasi mavjud bo'lgan holda, abstrakt nomda "belgi", "holat", "harakat", "munosaba", "faoliya" kabi semalar mavjud bo'lishi lozim. Tahlil uchun *tiriklik* leksemasini tanlaymiz. *Tiriklik* leksemasining semantik strukturasi "predmet" emas, "holat" semasi mavjud: "yashash holati".

Formal belgilarga asoslansak, ushbu guruh birliklarining ayrimlari grammatik ko'plik shaklini qabul qila olsa (qiyinchiliklar, o'limlar, zorliklar), ayrimlari qabul qila olmaydi (tirikliklar, hayotlar).

### **Xulosa**

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, mazkur guruhdagi so'zlarni abstrakt nomlar deyish mumkin edi. Lekin masalaning yana bir tomoni ham borki, konkret so'zlarning denotatini bevosita kuzatish mumkin bo'ladi va u hissiy bilish orqali idrok qilinadi. Nomoddiy xarakterdagi mohiyatlarni esa bevosita kuzatib bo'lmaydi va ular aqlan anglanadi, qalban his qilinadi. Jismoniy holatlarni nomlovchi ayrim abstrakt so'zlar, aniqrog'i, "o'lim" leksemasini designatini esa barcha sezgi a'zolarimiz bilan bo'lmasa-da, ma'lum



darajada ko'z orqali sezish, ya'ni ko'rish mumkin: *U itining o'limini ko'rgach, boshqa it saqlamaslikka qaror qilgan edi.*

*Qiyinchilikni ko'rmoq* bog'lanishida *ko'rmoq* leksemasi abstrakt nom bilan bog'lanayotgani uchun nutqiy ko'chma ma'no kasb etgan. *Qiyinchilik ko'rmoq* bog'lanishi aslida ko'p qiyin holatlarga duchor bo'lmoq ma'nosini beradi. *Dard ko'rmoq* bog'lanishida esa dardni emas, dardning belgilarini ko'rish nazarda tutiladi.

Jismoniy holat nomlaridan *hayot* leksemasi insonning jismoniy holatidan kengroq tushunchani ifodalaganligi uchun u meta-tushunchaga aylana olgan.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, jismoniy holat nomlaridan ayrimlari abstrakt otlarga (hayot, tiriklik), ayrimlari konkret otlarga mansub bo'ladi (charchoq, kasallik). Lekin konkret hisoblangan jismoniy holat nomlarining aksariyat hosila ma'nolari abstraktdir. Bunday holat *dard*, *azob*, *qiyinchilik* leksemalari ma'no taraqqiyotida ro'y bergan.

### **Adabiyotlar**

- Adabiyot.* 2018. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- Абдулла Аъзам. 1999. *Фан ва дин: муносабат диалектикаси*. Тошкент: Тафаккур. №1.
- Бюиссанс, Э. 2016. "Абстрактное и конкретное в лингвистических фактах: речь-дискурс-язык". *Political science (RU)* 3: 209-216.
- Гак, В.Г. 1993. *Пространство мысли: (Опыт систематизация слов ментального поля)*. Москва.
- Ивашенко, О.В. 2002. *Когнитивные классификаторы в семантическом поле абстрактных лексем*. Дисс. ... канд. филол. наук. Воронеж.
- Махмудов, Н. 2017. *Тил тилсими тадқиқи*. Тошкент: Mumtoz so'z.
- Миртожиев, М. 2010. *Ўзбек тили семасиологияси*. Тошкент: Mumtoz so'z.
- Нарходжаева, Х. 2017. *Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари*: Филол. фан. б. фалсафа докт. ...дисс. Тошкент.
- Нурмонов, А., Йўлдошев, Б. 2001. *Тилшунослик ва табиий фанлар (ўқув қўлланма)*. Тошкент.
- Чернейко, Л.О. 1997. *Лингво-философский анализ абстрактного имени*. Москва: МГУ им. Ломоносова.
- Щукина, Н.Ф. 1982. *Структурация лексико-семантического поля субъектно-модальных состояний в аспекте изучения языкового сознания*: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Саратов.

# Abstract nouns meaning "situation" in Uzbek

Muhayyo Hakimova<sup>1</sup>

## Abstract

The lexical layer of a language is determined by the way of life, culture, level of thinking, worldview of people who speak this language. While concrete words embody the ethnoculture and life of the people, and abstract words name the worldview, the way of thinking of a certain people, ethical, aesthetic, cultural, spiritual concepts and norms. This article analyzes the abstract names of the state of the Uzbek language. Their semantic groups, semantic structure, semantic development are studied. Analyzed abstract names expressing the psychological, mental, physical state. Each selected lexico-semantic group is again taxonomically classified.

**Key words:** *abstraction, abstract words, state, psychological state, mental state, physical state, semantics, polysemy, classification.*

## References

- Adabiyot*. 2018. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- Abdulla A'zam. 1999. *Fan va din: munosabat dialektikasi*. Toshkent: Tafakkur. №1.
- Byuissans, E. 2016. "Abstraktnoe i konkretnoe v lingvisticheskix faktax: rech-diskurs-yazyk". *Political science (RU)* 3: 209-216.
- Gak, V.G. 1993. *Prostranstvo misli: (Opit sistematizatsiya slov mentalnogo polya)*. Moskva.
- Ivashenko, O.V. 2002. *Kognitivnie klassifikatori v semanticheskoy pole abstraktnix leksem*. Diss. ... kand. filol. nauk. Voronej.
- Mahmudov, N. 2017. *Til tilsimi tadqiqi*. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Mirtojiev, M. 2010. *O'zbek tili semasiologiyasi*. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Narxodjaeva, X. 2017. *O'zbek tilida jarayon anglatuvchi terminlarning lingvistik xususiyatlari*: Filol. fan. b. falsafa dokt. ...diss. Toshkent.
- Nurmonov, A., Yo'ldoshev, B. 2001. *Tilshunoslik va tabiiy fanlar (o'quv qo'llanma)*. Toshkent.
- Cherneyko, L. O. 1997. *Lingvo-filosofskiy analiz abstraktnogo imeni*. Moskva: MGU im. Lomonosova.
- Shukina, N. F. 1982. *Strukturatsiya leksiko-semanticheskogo polya subekt-no-modalnix sostoyaniy v aspekte izucheniya yazykovogo soznaniya*: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. Saratov.

<sup>1</sup>Muhayyo K. Hakimova – Doctor of Philology (DSc), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** mabdullajonova2002@mail.ru

**ORCID ID :** 0000-0002-2002-7978

**For citation:** Hakimova, M. K. 2021. "Abstract nouns meaning "situation" in uzbek". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 18-30.